

**MAKTAB O`QUVCHILARINI INSONIY FAZILATLAR RUHIDA  
TARBIYALASHNING ASOSLARI**

*Choriyeva Sabinabonu*

*Buxoro davlat Pedagogika instituti*

*“Tillar fakulteti” talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o`quvchilarining insoniy fazilatlarini tarbiyalashda allomalarimizning qarashlari va ularning fikrlari keltirilgan. O`quvchilarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda maktab darsliklarining va muhitning qanchalik ahamiyatli ekanligi ohib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Insoniy fazilalatlar, darslik, yangilanish, adabiyot, vatanparvarlik, ijodkorlik, milliy qadriyat, ilmiy meros.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo`nalishlarida jadal sur`atlar bilan kirib bormoqda. Barcha sohalarda bo`lgani kabi, ta`lim sohasida ham ulkan islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta`lim sohasining rivojlanish bosqichida maktab ta`limining o`rni beqiyos o`rin tutayotgani, barchamizni birdek quvontirmoqda. Ta`lim sohasining sayqal topib borayotgani har bir darslik ustida ishlashni, shuningdek mavzular va jumlalar ustida munozaralar olib borishni taqozo etadi. Darsliklarimiz mazmunan boy, ko`rinish jihatdan ko`rkam bo`lishi, eng muhimi Davlat ta`lim standartlariga to`la qonli javob bera olishi lozim. Darslikdagi har bir bo`limdan to`kachik bir mavzugacha har biri talablarga javob bera olishi kerak. Zero, muhtaram Prezidentimizning quyidagi fikrlarini esga olsak: “Har bir insonga, ayniqsa endigina hayotga qadam qo`yib kelayotganlarga shunday fikrni singdirish kerakki, ular oldiga qo`ygan maqsadlariga erishish o`zlariga bog`liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Ya`ni bu narsa ularning sobitqadam, g`ayrat-shijoatga, to`la-to`kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga va insoniy vazilatlariga bog`liqdir. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir”.

Maktab sinflarda axloqiy tarbiya, muomala madaniyati, kiyinish madaniyati, insoniy fazilatlar haqida ko`plab o`qish darsliklarida xilma-xil mavzulardagi badiiy kompozitsion asarlar hamda maqol, masallar, kichik hikoyalar berilgan. Albatta, ularning har biridan ulug` maqsadlar ko`zlangan. Adabiyotni o`z mohiyatiga ko`ra insonni yetuklikka yetaklaydigan yoshlarimizni barkamol avlod qilib tarbiyalashda biz ularni mustaqil fikrlash, mushohada qilishga, kelajakda o`z oldiga qo`yan maqsadga erishishda to`g`ri maqsad qo`ya olishga ko`maklashadi. Buyuk mutafakkirimiz she'riyat sulton Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek:

Odamgi ersang, demagil odami,  
Onikim yo`q xalq g`amidin g`ami;  
Boshni fido ayla ato qoshig`a,  
Jismni qil sadqa ano boshig`a;  
Jahonda neki qilmish odamizod,  
Tafakkur birla bilmish odamizod;

Allomaning bu purmano dono fikrlari o`quvchilarimizning barkamol insonlar bo`lib tarbiya topishida bebaho boylik sanaladi. Adabiyot inson qalbiga e兹gilik urug`ini sepati, uni hayotda to`g`ri yashashga, ulug` maqsadlar yo`lida kurashishga o`rgatadi. Adabiyotimiz irmoqlari esa buyuk allomalarimiz yaratgan asarlardan iborat. Adabiyotning jo`sinqinligi, kurashchanligi – hayotda tutgan o`rni undagi asarlarning sifatiga qarab belgilanadi. Shunga ko`ra. adabiyot ta'limi o`z oldiga bir qator maqsadlarni qo`yadi. Umumiy o`rta ta'lim maktablaridagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy axloqiy fazilatlarni yo`nalishlar ustuvorligini ko`zda tutadi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- o`quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, milliy va ma'rifiy, vatanparvarlik, e兹gilik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag`bat, mehr va muhabbat uyg`otish;

- ularni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida, adabiyotga, milliy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;
- ularning boy ma'naviy dunyosini shakllantirish;
- badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o`rganish asosida o`quvchida tanqidiy fikrlashga oid ko`nikma va malakalarni hosil qilish;
- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;
- ularda har qanday ma'naviy xurujlarga nisbatan sog`lom va baquvvat e'tiqodga tayanadigan immunitetni shakllantirish.

Xususan, Abu Nasr Farobiy allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi ,sezgi organlari u tug`ilganda vujud bo`lgan bo`lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati , ruhiyati, intelluktual va axloqiy sifatlari ,xarakter ,dini ,urf-odatlari ,ma'lumoti tashqi olam ,ijtimoiy muhit ta'sirida ,odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlar jarayonida shakallanadi .

Abu Nasr Farobiyning ma`rifiy qarashlari o`rtalarda mavjud bo`lgan ma`naviy-falsafiy muammolar – tana va ruh, borliq, harakat, fazo va vaqt, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, ruhiy jarayonlar to`g`risidagi tasavvurlar bilan omuxta holda maydonga keldi. Uning fikricha, barcha muammolarni yechish kaliti oliy maqsadli jamoa, barcha ilmiy ma`naviy fazilatlarni o`zida mujassamlashtirgan inson adolatli jamiyat, farovon turmushning garovidir.

Uyg`onish davrining yetuk mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g`oyalari negizini tashqi muhit va insonning jismoniy sog`lomligi orqali ma`naviy kamolotga erishishi muammosi tashkil etadi. U o`zining bir qator asarlarida fozil jamoaning har bir a`zosi ma`naviy madaniyati uning jismoniy

va ruhiy intellekti orqali shakllantirilishi lozim degan fikrni ilgari surdi. Alloma o`z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o`zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alaohind qayd etadi: “Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o`rganilishidir .Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytildi . Bu shundayki ,inson aqli uni xato va yo`ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo`ladigan narsadir .Bordi-yu ,bu dalillar ochiq –oydin bo`lsa-yu , isbotlar chinakamiga bo`lsa , u holda bunga hikmat donishmandlik deyildi. Insonning go`zal xulqga egaligi uning ening beba ho ziynati hisoblandi. Vijdon ruh va fikrimizni tuyg`un qilmakka birinchi vositadir”.

Ustoz Abdulla Avloniy axloqqa bunday ta’rif berganlar :“Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi , yomonlikdan qaytaruvchi biridir . Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladigan kitobga “Axloq” deyilur .Axloq ilmini o`qib , bilib amal qilgan kishilar o`zining kim ekanligini ,Janobi Haq na uchun xalq qilganini ya’ni yaratganini, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganini bilur .Bir kishi o`zidan xabardor bo`lmasa , ilmni ulamoni ,yaxshi kishilarni , yaxshi narsalarni , yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas.Shu fikrlrani davom ettirgan holda, Abdulla Avloniy farzandlar tarbiyasiga ta’lim -tarbiya orqali ularni yetuk fozil inson bo`lib yetishga xizmat qiluvchi darsliklar shu bilan birga yoshlar va kattalarga birdek taalluqli bo`lgan asarlar yozganlar .

Maktab o`quvchilarida o`zbek xalqi milliy qadriyatlarini shakllantirishning bu ilmiy asosi to`rtta muhim ijtimoiy-ruhiy omilni hal etishga xizmat qilmog`i lozim:

- o`quvchida o`zbek xalqining ilmiy merosini o`rganishga ehtiyojni oshirishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy muammolarni to`g`ri anglashga yordam berish;

- o`zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini maktab o`quvchilarida shakllantirish zamirida, uning jamiyat taraqqiyotiga hissa qo`shishini ta`minlash va o`quvchilarni faollashtirish.

Buyuk shoirimiz ustoz Abdulla Oripov shuday satrlarni bitgan :

Mayli shoirlilikni qolmagil xavas ,

Balki olimlik xam senga shart emas .

Anglasang dunyoning o`tginchiligin,

Komil bo`lmoqlikka shuning o`zi bas